



II. SANOAT


2026- yil yanvar-mart oylari uchun

- I. Farg'ona viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini soni
- II. Farg'ona viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida
- III. Yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish
- IV. Kichik biznes tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
- V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Farg'ona viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini soni

2026- yilning 1-aprel holatiga ko'ra viloyatda 6 259 ta sanoat korxonalarini faoliyat yuritib kelmoqda. Ushbu sanoat korxonalarini soni asosiy iqtisodiy faoliyat turlari kesimida taqsimlanganda yuqori ulush 1 056 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 16,9 %) oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishga, 772 tasi (12,3 %) kiyim ishlab chiqarishga, 543 tasi (8,7 %) mashina va uskunalardan tashqari tayyor metal buyumlar ishlab chiqarishga to'g'ri kelmoqda.

Korxonalar soni
1- aprel holatiga ko'ra





II. Farg'ona viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2026-yilning yanvar-mart oyida viloyat korxonalari tomonidan 13 763,7 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2025-yilning yanvar-mart oyiga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 108,0 % ni tashkil etdi.

	Hajmi, mlrd so'm	Fizik hajm indeksi, % da
Farg'ona viloyati	13 763,7	108,0
<i>shahar tumanlar:</i>		
Farg'ona shahri	2 797,4	107,1
Qo'qon shahri	2 259,9	108,7
Quvasoy shahri	430,6	108,1
Marg'ilon shahri	569,3	108,4
Oltiariq tumani	344,4	106,8
Qo'shtepa tumani	744,2	107,0
Bag'dod tumani	340,6	108,6
Buvayda tumani	486,5	110,5
Beshariq tumani	423,2	106,9
Quva tumani	193,5	109,8
Uchko'prik tumani	1 277,2	110,1
Rishton tumani	182,5	116,4
So'x tumani	34,8	112,3
Toshloq tumani	675,2	110,9
O'zbekiston tumani	416,8	112,3
Farg'ona tumani	634,8	110,8
Dang'ara tumani	397,4	109,3
Furqat tumani	190,6	105,6
Yozyovon tumani	133,0	110,4

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(oylik\)](#)

[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(yillik\)](#)


Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Farg'ona shahrida (8 332,1 ming so'm), Qo'qon shahrida (7 057,1 ming so'm), Quvasoy shahrida (4 100,4 ming so'm), Uchko'prik tumanida (3 118,7 ming

so'm), o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (3 252,9 ming so'm) sezilarli darajada yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Shuningdek, viloyatda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati 106,0 % ni tashkil etgan bo'lsa, Yozyovon tumanida (108,4 %), Farg'ona tumanida (108,8 %), Qo'qon shahrida (106,7 %), Beshariq tumanida (105,1 %), Marg'ilon shahrida (106,8 %) So'x tumanida (108,9 %), Rishton tumanida (114,4 %), qayd etilib viloyat ko'rsatkichidan ancha yuqori natija qayd etilmoqda.


Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
yanvar-mart oyida



Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

2026- yilning yanvar-mart oyida sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 12 636,2 mlrd so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (91,8 %) ni tashkil etgan holda tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda 43,3 mlrd so'm (0,3 %), elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda 942,4 mlrd so'm (6,9 %) hamda suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda 141,8 mlrd so'm (1,0 %) ni tashkil etdi.

Sanoatning asosiy sektoralari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi, jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, fizik hajm indeksi
2026- yilning yanvar-mart oyida





III. Yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2026- yilning yanvar-mart oyida viloyatda 39,6 ming tonna avtomobil benzini (2025- yilning yanvar-mart oyiga nisbatan 100,5 % ga o'sdi) 281,6 ming litr aroq mahsulotlari (115,7 % ga o'sdi) hamda 110 209,3 tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (129,0 % ga o'sdi) ishlab chiqarilgan.

Sanoat mahsulotlari	2024- yil yanvar-mart	2025- yil yanvar-mart	2026- yil yanvar-mart
Paxta tolasi, tonna	30 385,6	27 008,9	32 381,4
Paxta urug'lari, tonna	40 585,0	33 944,5	43 359,2
Avtomobil benzini, ming t	78,9	39,4	39,6
Dizel yoqilg'isi, ming t	100,1	60,5	77,3
Paxta linti, tonna	2 298,2	2 352,7	1 946,8
Neft bitumi, ming t	7,7	6,6	4,2
Portlandsement, ming t	94,5	88,4	80,7

**2024-2026- yillarning yanvar-mart oyi uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan*

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[Sanoat ishlab chiqarish hajmlar \(yillik\)](#)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibiga kiruvchi ayrim iqtisodiy faoliyat turlarining sanoat ishlab chiqarish hajmlari

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 19,3 % (2025- yilning yanvar-mart oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 119,5 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 10,5 % (2025 yilning yanvar-mart oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 83,2 %) ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatning texnologik tarkibi va ulushi

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,8 % ni (2025-yilning yanvar-mart oyida 0,8 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 12,4 % (15,1 %), o'rta-quyi texnologiyali – 24,5 % (27,8 %), quyi texnologiyali 62,3 % (55,9 %) ni tashkil etgan.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi

2026-yilning yanvar-mart oyida o'tgan yilning mos davriga nisbatan elektrenergiya ishlab chiqarish 71,1 % ni, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa 112,9 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2024- yil yanvar-mart	2025- yil yanvar-mart	2026- yil yanvar-mart
Jami ishlab chiqarilgan elektrenergiya, mln kvts	82,5	88,9	65,9
Issiqlik energiyasi, ming gkal	379,9	403,0	415,4



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalaridan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi


O'tgan yilning mos davriga nisbatan tabiiy suv; suvga ishlov berish va suv ta'minoti bo'yicha xizmatlar 148,0 % ni chiqindi suvlarni olib tashlash, tashish va ularni qayta ishlash bo'yicha xizmatlar 86,6 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2024- yil yanvar-mart	2025- yil yanvar-mart	2026- yil yanvar-mart
Tabiiy suv; suvga ishlov berish va suv ta'minoti bo'yicha xizmatlar mlrd so'm	50,1	60,1	90,2
Chiqindi suvlarni olib tashlash, tashish va ularni qayta ishlash bo'yicha xizmatlar-mlrd so'm	9,3	13,5	11,7

*2024-2026- yillarning yanvar-mart oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan

IV. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan 8 229,5 mlrd so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 59,8 % ni tashkil etdi. 2025- yilning yanvar-mart oyida kichik biznes subyektlarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 53,1 % ni tashkil etgan.





V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Sanoat bu – xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollari yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi bo'yicha hisoblash metodikasi (qisqacha)

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi to'g'risidagi ma'lumotlarni mahsulot turlari bo'yicha shakllantirish O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning (tovarlar, ishlar, xizmatlarning) statistik tasniflagichi (O'zDSt 2914:2014) kodlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Bularga tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, ishlab chiqaradigan sanoat, elektr energiyasi, gaz, bug' va konditsiyalangan havo, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va qayta foydalanish bo'yicha xizmatlar (B, C, D, E seksiyalari) kiradi. Sanoat bo'yicha statistika ma'lumotlari quyidagilar asosida shakllantiriladi: a) sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik) ma'lumotlari asosida; b) kichik korxonalar, mikrofirmalarning choraklik tanlanma kuzatuvlari natijalari asosida; d) ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlik sub'ektlarining choraklik tanlanma statistika kuzatuv ma'lumotlari; e) uy xo'jaliklari kuzatuv materiallari.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi bo'yicha ta'rif

Fizik hajm indeksini hisoblash deflyatorlash usuli orqali amalga oshiriladi. Hisoblash mahsulot (ish, xizmatlar) ishlab chiqarishning qiymat ko'rinishdagi dinamikasi to'g'risidagi ma'lumotlarga asosanib, keyinchalik alohida indekslar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yiriklashtirilgan indekslarga bosqichma-bosqich agregatsiyalanadi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish fizik hajm indeksini deflyatorlash usuli bilan hisoblashning afzalliklari: bu usul indeksga turli xil tovarlar guruhlariga kirishga imkon beradi; statistik tanlab olingan narxlardan tegishli tovarlar guruhining vakili sifatida foydalanish mumkin; deflyatorlash usuli ishlab chiqarilayotgan mahsulotdagi sifatli o'zgarishlarni hisobga olishga imkon beradi. Sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmining yig'ma indeksi, bazis yilning qo'shilgan qiymat tuzilmasiga qayta hisoblangan seksiyalar bo'yicha indeks ko'rsatkichlarini agregatsiyalash orqali aniqlanadi.

Sanoat ishlab chiqarishining tarkibi asosiy 4 ta **B, C, D, E** seksiyalaridan tashkil topgan bo'lib quyidagilardan iborat:

B - Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

C - Ishlab chiqarish sanoati

D - Elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

E - Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/679-sanoat-ishlab-chiqarishining-umumiy-hajmi-qiymatini-baholash-bo-yicha-uslubiy-nizom-ni-tasdiqlash-to-g-risida>

<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/477-erbfqheeh5446456>

Mas'ul:

Sanoat va energetika
statistikasi bo'limi

Manzil: 150100, Farg'ona shahar,

Oq yo'l ko'chasi, 104 a-uy

Pochta: farstat@farstat.uz

Tel: 73 241-96-28 (4010)